

ISSN 3060-544X

2026-yil 7-son

ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR

ilmiy-nazariy jurnal

BUXORO 2026



ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR

ilmiy-nazariy jurnal

СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО И ИННОВАЦИИ

научно-теоретический журнал

MODERN SOCIETY AND INNOVATIONS

scientific-theoretical journal

№ 7-son, 1-qism 2026-yil

*Jurnal 2025-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta nashr etiladi.*

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2025-yil 24-sentyabrdagi 375/5-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning disertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA:

Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Yo'nalishi	Bet
<i>A'ZAMOVA XUMOROY ILYOSJONOVNA</i>	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SO'Z-MANTIQ TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH SHARTI SIFATIDA ERTAKLAR SYUJETLARIDAGI TRIGGERLARDAN FOYDALANISH	PSIXOLOGIYA	3
	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТРИГГЕРОВ В СЮЖЕТАХ СКАЗОК КАК УСЛОВИЕ РАЗВИТИЯ СЛОВЕСНО-ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА		
	THE USE OF TRIGGERS IN FAIRY TALE PLOTS AS A CONDITION FOR THE DEVELOPMENT OF VERBAL-LOGICAL THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN		
<i>AXROROV VORIS YUNUSOVICH</i>	PEDAGOGIK FAOLIYATDA KONFLIKTLI HOLATLARDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING PSIXOLOGIK CHIDAMLILIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI	PSIXOLOGIYA	8
	ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЯХ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ		
	FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL RESILIENCE OF FUTURE TEACHERS IN CONFLICT SITUATIONS WITHIN PEDAGOGICAL ACTIVITY		
<i>MAXMUDOVA ZULFIYA MEXMONOVNA</i>	QO'RIQLASH XIZMATI XODIMLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	13
	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СОТРУДНИКОВ СЛУЖБЫ ОХРАНЫ		
	SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR ENHANCING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF SECURITY SERVICE PERSONNEL		
<i>SUVONOVA LOBARXON ISLOM QIZI</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN AUDITORIYA VA AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG'ULOTLARD FOYDALANISHDA PEDAGOGIK DIZAYNING AHAMIYATI	PEDAGOGIKA	25
	ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИЗАЙНА ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В АУДИТОРНЫХ И ВНЕАУДИТОРНЫХ ЗАНЯТИЯХ		
	THE IMPORTANCE OF INSTRUCTIONAL DESIGN IN THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN CLASSROOM AND EXTRACURRICULAR LEARNING ACTIVITIES		

<i>RAXIMBAYEVA GULYORA ULUGBEKOVNA</i>	TALABALARDA IJTIMOY IDENTIFIKATSIYA SHAKLLANISHINI O'RGANISHDA QO'LLANILADIGAN PSIXODIAGNOSTIK METODIKALAR TASNIFI	PSIXOLOGIYA	30
	КЛАССИФИКАЦИЯ ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИХ МЕТОДИК, ИСПОЛЗУЕМЫХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ У СТУДЕНТОВ		
	CLASSIFICATION OF PSYCHODIAGNOSTIC METHODS USED IN STUDYING THE FORMATION OF STUDENTS' SOCIAL IDENTIFICATION		
<i>MASHARIPOVA XADICHA JAVLON QIZI</i>	MATERIALSHUNOSLIK ASOSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	PEDAGOGIKA	36
	ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ОСНОВ МАТЕРИАЛОВЕДЕНИЯ		
	THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE METHODS AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE FUNDAMENTALS OF MATERIALS SCIENCE		
<i>ISABAYEV ABDUKARIM KOMILJONOVICH</i>	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOGNITIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	40
	ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА		
	PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING COGNITIVE ACTIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN		
<i>AHMADOVA MAHBUBA SHAVKAT QIZI</i>	ALISHER NAVOIY IJODIDAGI DO'STLIK VA SADOQAT G'OYALARINI BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYAVIY VOSITA SIFATIDA QO'LLASH	PEDAGOGIKA	45
	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИДЕЙ ДРУЖБЫ И ПРЕДАННОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ КАК СРЕДСТВА ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ		
	THE USE OF THE IDEAS OF FRIENDSHIP AND LOYALTY IN ALISHER NAVOI'S WORKS AS AN EDUCATIONAL TOOL IN PRIMARY EDUCATION		
<i>MAHMARAIMOV JASUR JUMANAZAROVICH</i>	BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA SHUG'ULLANUVCHI BADMINTONCHILARGA TEXNIK-TAKTIK XARAKAT ELEMENTLARINI O'RGATISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	51
	МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИМ ДЕЙСТВИЯМ БАДМИНТОНИСТОВ НА ЭТАПЕ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ		
	METHODOLOGY FOR TEACHING TECHNICAL AND TACTICAL MOVEMENT ELEMENTS TO BADMINTON PLAYERS AT THE INITIAL TRAINING STAGE		

<i>RAXIMOVA FAZILATXON ATABEKOVNA</i>	TA'LIM JARAYONIDA BO'LJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIGA O'RTA OSIYO ALLOMALARINING ILMIY MEROSINI O'RGATISHNING DIDAKTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI	PEDAGOGIKA	58
	ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НАУЧНОМУ НАСЛЕДИЮ УЧЕНЫХ СРЕДНЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ		
	OPPORTUNITIES FOR IMPROVING THE DIDACTIC SUPPORT OF TEACHING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS ABOUT THE SCIENTIFIC HERITAGE OF MIDDLE SCHOOL SCIENTISTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS		
<i>САБИРОВА ШАХЛО</i>	МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV FAOLLIKNI DIDAKTIK O'YINLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH	PEDAGOGIKA	63
	РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА СРЕДСТВАМИ ДИДАКТИЧЕСКОЙ ИГРЫ		
	DEVELOPING THE COMMUNICATIVE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH DIDACTIC GAMES		
<i>MASHARIPOVA SAIDA RAHIMOVNA</i>	OTA-ONALARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI VA FARZANDLARNING SHAXSIY KAMOLOTIGA TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	67
	ВЛИЯНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА РОДИТЕЛЕЙ НА ЛИЧНОСТНОЕ СТАНОВЛЕНИЕ ДЕТЕЙ		
	PARENTS' EMOTIONAL INTELLIGENCE AND ITS IMPACT ON CHILDREN'S PERSONAL DEVELOPMENT		
<i>TOSHEV ALISHER TEMIROVICH</i>	ШАХМАТ O'YINLARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASH VA INTELLEKTUAL RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	71
	МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ШАХМАТНОЙ ИГРЫ		
	METHODOLOGY FOR DEVELOPING LOGICAL THINKING AND INTELLECTUAL GROWTH IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON CHESS GAMES		
<i>DAVLATOVA ZEBO HAYDAROVNA</i>	МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING HISSIY-IRODAVIY RIVOJLANISHGA PSIXOLOGIK TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	76
	ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА		
	THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGY USE ON THE EMOTIONAL AND VOLITIONAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN		

<i>JUMAYEV NODIR ZAYNIDDINOVICH</i>	O'SMIRLARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TECHNOLOGIYALARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI	PSIXOLOGIYA	83
	ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ		
	THE PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AMONG ADOLESCENTS		
<i>TESHABOEV AKRAMJON YULDASHEVICH</i>	TALABALARNING O'QUV JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLARINI ANIQLASH VA KORREKSIYALASHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA TECHNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	90
	МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ ПРИ ВЫЯВЛЕНИИ И КОРРЕКЦИИ ТРУДНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ		
	METHODOLOGY FOR USING PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC TECHNOLOGIES TO IDENTIFY AND CORRECT STUDENTS' LEARNING DIFFICULTIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS		
<i>АСЛАМКУЛОВА ПАРВИНА ЖАМШИД КИЗИ</i>	SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA BILIMNING ISHONCHLILIGI MUAMMOSI: FALSAFIY VA GNOSEOLOGIK TAHLIL	PEDAGOGIKA	98
	ПРОБЛЕМА ДОСТОВЕРНОСТИ ЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ФИЛОСОФСКО-ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ		
	THE PROBLEM OF KNOWLEDGE RELIABILITY IN THE ERA OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A PHILOSOPHICAL AND EPISTEMOLOGICAL ANALYSIS		
<i>TURSUNKULOVA SHODIYA</i>	TALABALARDA EMOTSIONAL BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI	PSIXOLOGIYA	105
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ У СТУДЕНТОВ		
	PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING EMOTIONAL STABILITY IN STUDENTS		
<i>TOHIROVA FERUZA</i>	BO'LAJAK TIBBIYOT XODIMLARIDA KASBIY IDENTIKLIKNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUHITNING TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	110
	ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ		
	THE INFLUENCE OF THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT ON THE FORMATION OF PROFESSIONAL IDENTITY IN FUTURE HEALTHCARE PROFESSIONALS		

<i>ESHPU LATOVA SHOXISTA</i>	O‘SMIRLARDAGI AGRESSIV XULQ-ATVORNING SHAKLLANISHIDA OILAVIY VA PEDAGOGIK MUHITNING PSIXOLOGIK TA‘SIRI	PSIXOLOGIYA	119
	ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНОЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ		
	THE PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF FAMILY AND EDUCATIONAL ENVIRONMENTS ON THE FORMATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS		
<i>ERGASHEV IBODULLA</i>	“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINING JAMIYAT IDEOSFERASINI YANGILASHDAGI O‘RNI	PEDAGOGIKA	126
	РОЛЬ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030» В ОБНОВЛЕНИИ ИДЕОСФЕРЫ ОБЩЕСТВА		
	THE ROLE OF THE “UZBEKISTAN – 2030” STRATEGY IN RENEWING THE IDEOLOGICAL SPHERE OF SOCIETY		
<i>TUXTASHEVA RUSHANA SADULLAYEVNA</i>	OLIV TA‘LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA‘LIM JARAYONIDA INTERFAOL MULOQOTNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI	PEDAGOGIKA	131
	РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИНТЕРАКТИВНОГО ОБЩЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ		
	THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING INTERACTIVE COMMUNICATION IN DISTANCE LEARNING PROCESSES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS		
<i>USMONOV RAHIM RAXMONALI O‘GLI</i>	TURLI HUDUDIY SHAROITLARDAGI HAYDOVCHILARNING G‘AZABLANISH DARAJASINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	PSIXOLOGIYA	136
	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УРОВНЯ АГРЕССИВНОСТИ И ГНЕВА ВОДИТЕЛЕЙ В РАЗЛИЧНЫХ РЕГИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ		
	SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DRIVERS’ ANGER LEVELS IN DIFFERENT REGIONAL CONDITIONS		
<i>RAHIMOVA NAVBAHOR RUSTAMOVNA, OLIMOV TEMUR HASANOVICH</i>	DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDAGI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	PEDAGOGIKA	141
	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА		
	IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ COMMUNICATIVE COMPETENCE BASED ON A DIFFERENTIATED APPROACH		

<i>TURDIKULOVA EBZOXOH ERKINJOH KIZI</i>	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA CHET TILIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA INTERNET TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	PEDAGOGIKA	147
	ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРНЕТ-ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИНОЯЗЫЧНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ		
	THE EFFECTIVENESS OF USING INTERNET TECHNOLOGIES IN DEVELOPING FOREIGN LANGUAGE COMMUNICATIVE COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS		
<i>RASHIDOV ABDURASHID MURODULLAYEVICH</i>	PSIXOLOGIK METODLAR YORDAMIDA YOSHLARDA VATAN HIMOYASI RUHINI TARBIYALASH	PSIXOLOGIYA	152
	ФОРМИРОВАНИЕ У МОЛОДЕЖИ ДУХА ЗАЩИТЫ РОДИНЫ С ПОМОЩЬЮ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ		
	CULTIVATING THE SPIRIT OF DEFENDING THE MOTHERLAND AMONG YOUTH THROUGH PSYCHOLOGICAL METHODS		
<i>ABSAMATOVA GULKHAYO BAKHODIROVNA</i>	DUNYO IMO-ISHORA TILI FOYDALANUVCHILARI VA TARJIMA NAZARIYASI	PEDAGOGIKA	156
	МИР ПОЛЬЗОВАТЕЛЕЙ ЖЕСТОВОГО ЯЗЫКА И ТЕОРИЯ ПЕРЕВОДА		
	THE WORLD OF SIGN LANGUAGE SPEAKERS AND TRANSLATION THEORY		
<i>IZZATOV SHERZOD SAMAD O'G'LI</i>	YOSHLARDA PSIXOLOGIK IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	162
	НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У МОЛОДЕЖИ		
	SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING PSYCHOLOGICAL IMMUNITY IN YOUNG PEOPLE		
<i>KARIMOV SHERZOD ABDURASULOVICH</i>	ICHKI LOKUS NAZORAT VA MOTIVATSION FAOLIYAT XUSUSIYATLARINING O'RGANILISHI	PSIXOLOGIYA	167
	ИССЛЕДОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ВНУТРЕННЕГО ЛОКУСА КОНТРОЛЯ И МОТИВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ		
	A STUDY OF THE CHARACTERISTICS OF INTERNAL LOCUS OF CONTROL AND MOTIVATIONAL ACTIVITY		
<i>MURATOVA SABOXAT CHORIYEVNA</i>	OILA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA BERISH	PEDAGOGIKA	174
	ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ СЕМЬИ И ШКОЛЫ		
	SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION BASED ON NATIONAL VALUES IN FAMILY AND SCHOOL COOPERATION		

<i>NIYAZOVA NILUFAR FARXADOVNA</i>	ONKOLOGIK KASALLIKKA CHALINGAN BEMORLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI	PSIXOLOGIYA	180
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ У ПАЦИЕНТОВ С ОНКОЛОГИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ		
	PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF EMOTIONAL STABILITY IN PATIENTS WITH ONCOLOGICAL DISEASES		
<i>QALANDAROVA YULDUZ BAHRAMOVNA</i>	PSIXOLOGIK TRENINGLAR ORQALI TALABALARDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI	PSIXOLOGIYA	188
	ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ		
	THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS' PSYCHOLOGICAL WELL-BEING THROUGH PSYCHOLOGICAL TRAINING PROGRAMS		
<i>RAHIMOVA NAZOKATXON KASIMDJONOVNA</i>	TALABALARDA IJTIMOY YETUKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI VA TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	192
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНТОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ		
	PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' SOCIAL MATURITY AND THEIR IMPACT ON EDUCATIONAL EFFECTIVENESS		
<i>TOIROVA MUNAVVAR MURODULLAYEVNA</i>	O'SMIRLARDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI	PSIXOLOGIYA	202
	ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ У ПОДРОСТКОВ		
	PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING NATIONAL IDENTITY IN ADOLESCENTS		



Rahimova Nazokatxon Kasimdjonovna,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

TALABALARDA IJTIMOYIY YETUKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI VA TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ijtimoiy yetuklikning shaxs rivojlanishidagi o'rni, uning motivatsion, kognitiv, emotsional-irodaviy va kommunikativ komponentlari yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida talabalar shaxsining ijtimoiy faolligi, mas'uliyat hissi, refleksiv fikrlashi, emotsional intellekti va ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning zamonaviy psixologik mexanizmlari tizimlashtirilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida talabalarning ijtimoiy moslashuvi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, jamoada samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishi hamda kasbiy kompetentligining shakllanishi ijtimoiy yetuklik darajasi bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asoslangan. Maqolada ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, innovatsion ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlarining samaradorligi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida talabalarni har tomonlama barkamol, ijtimoiy faol, mas'uliyatli va raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy yetuklik, psixologik mexanizmlar, ta'lim samaradorligi, talaba shaxsi, emotsional intellekt, kommunikativ kompetentlik, refleksiya, motivatsiya, ijtimoiy kompetentlik, shaxs rivojlanishi, oliy ta'lim, ijtimoiy faollik, mas'uliyat, innovatsion ta'lim, psixologik rivojlanish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНТОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологические механизмы развития социальной зрелости студентов и их влияние на эффективность образовательного процесса. Проведен комплексный научно-теоретический анализ сущности социальной зрелости, ее роли в личностном и профессиональном становлении будущих специалистов, а также особенностей формирования мотивационного, когнитивного, эмоционально-волевого и коммуникативного компонентов социальной зрелости. Особое внимание уделено развитию социальной активности, ответственности, эмоционального интеллекта, рефлексивного мышления и социальных компетенций студентов как важнейших факторов повышения качества высшего образования. На основе сравнительного анализа трудов отечественных и зарубежных исследователей систематизированы современные психологические механизмы формирования социальной зрелости личности. Обосновано, что уровень социальной зрелости студентов непосредственно влияет на их академическую успешность, способность к самостоятельному принятию решений, конструктивному взаимодействию в коллективе, социальной адаптации и профессиональной самореализации. В статье раскрываются психолого-педагогические условия, инновационные образовательные технологии и личностно-ориентированные подходы, обеспечивающие эффективное развитие социальной зрелости обучающихся. Полученные результаты подтверждают, что развитие социальной зрелости является одним из ключевых факторов подготовки конкурентоспособных, социально ответственных и профессионально компетентных специалистов в системе высшего образования.



Ключевые слова: социальная зрелость, психологические механизмы, эффективность образования, личность студента, эмоциональный интеллект, коммуникативная компетентность, мотивация, рефлексия, социальная компетентность, личностное развитие, высшее образование, социальная активность, ответственность, инновационные технологии обучения, профессиональное становление.

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' SOCIAL MATURITY AND THEIR IMPACT ON EDUCATIONAL EFFECTIVENESS

Abstract. This article examines the psychological mechanisms underlying the development of students' social maturity and analyzes their influence on educational effectiveness from both theoretical and practical perspectives. The study explores the role of social maturity in personal and professional development, emphasizing its motivational, cognitive, emotional-volitional, and communicative dimensions. Particular attention is given to the development of students' social activity, responsibility, emotional intelligence, reflective thinking, and social competence as key determinants of educational quality in higher education institutions. Through a comparative analysis of national and international scholarly literature, the study systematizes contemporary psychological mechanisms that facilitate the development of social maturity. The findings demonstrate that students' level of social maturity significantly affects their academic achievement, independent decision-making, social adaptation, collaborative skills, and professional competence. Furthermore, the article highlights the effectiveness of learner-centered approaches, innovative educational technologies, interactive teaching methods, and psychologically supportive learning environments in fostering students' social maturity. The results indicate that strengthening students' social maturity contributes substantially to improving educational outcomes and preparing socially responsible, professionally competent, and globally competitive graduates capable of meeting the demands of modern society and the labor market.

Key words: social maturity, psychological mechanisms, educational effectiveness, student personality, emotional intelligence, social competence, communicative competence, motivation, reflection, personal development, higher education, social responsibility, innovative educational technologies, collaborative learning, professional competence.

Kirish. XXI asrda globallashuv, raqamli transformatsiya, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, mehnat bozori talablarining tubdan o'zgarishi oliy ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Endilikda oliy ta'lim muassasalari faqatgina nazariy bilimlarni egallagan mutaxassisni emas, balki mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy mas'uliyatni chuqur his qiladigan, jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok eta oladigan, samarali muloqot yurita oladigan hamda murakkab hayotiy vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish kompetensiyasiga ega bo'lgan shaxsni shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish bugungi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarining eng ustuvor ilmiy-amaliy muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ijtimoiy yetuklik shaxsning jamiyatda o'z o'rnini anglay olishi, ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi, fuqarolik pozitsiyasini namoyon qilishi, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni his qilishi, mustaqil qaror qabul qilishi, o'zini-o'zi boshqara olishi hamda ijtimoiy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilishi bilan tavsiflanadigan murakkab psixologik hodisadir. Mazkur sifatlarning shakllanishi shaxsning nafaqat akademik muvaffaqiyatiga, balki uning kelajakdagi kasbiy faoliyati, liderlik salohiyati, jamoa bilan ishlash madaniyati, innovatsion fikrlashi va umuman jamiyat taraqqiyotiga qo'shadigan hissasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, talabalik davri shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, aynan ushbu davrda insonning kasbiy identifikatsiyasi, ijtimoiy qadriyatlari, hayotiy maqsadlari, motivatsiyasi va ijtimoiy kompetensiyalari faol shakllanadi.

Bugungi kunda ta'lim samaradorligini baholash mezonlari ham sezilarli darajada o'zgarimoqda. Avvallari ta'lim natijasi asosan talabaniq bilim darajasi va o'zlashtirish



ko'rsatkichlari bilan belgilanar edi. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv esa ta'lim samaradorligini talabning ijtimoiy moslashuvchanligi, kommunikativ kompetentligi, tanqidiy va kreativ fikrlashi, emotsional intellekti, ijtimoiy mas'uliyati, jamoada ishlash qobiliyati hamda umrbod ta'lim olishga tayyorligi bilan ham baholashni talab etmoqda. Shu sababli oliy ta'lim tizimida ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning eng muhim psixologik omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy yetuklikning shaxs rivojlanishidagi o'rni tobora kengroq o'rganilmoqda. Psixologiya, pedagogika, sotsiologiya hamda ta'lim menejmenti sohalaridagi izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy jihatdan yetuk talaba o'zining intellektual salohiyatini to'liq namoyon eta oladi, ta'lim jarayonida faol ishtirok etadi, innovatsion g'oyalarni ilgari suradi hamda murakkab ijtimoiy vaziyatlarda konstruktiv yechim topishga moyil bo'ladi. Bunday talabalar o'z oldiga aniq maqsad qo'ya oladi, o'z faoliyatini rejalashtiradi, shaxsiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadi va doimiy ravishda o'z ustida ishlashga intiladi. Natijada ularning akademik muvaffaqiyati, kasbiy tayyorgarligi hamda ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori bo'ladi.

Shu bilan birga, oliy ta'lim amaliyotida ayrim muammolar ham kuzatilmoqda. Jumladan, ayrim talabalarda ijtimoiy mas'uliyatning sustligi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining yetarli shakllanmaganligi, kommunikativ qiyinchiliklar, jamoada ishlash malakasining pastligi, stress va emotsional zo'riqlashlarga bardoshlilik darajasining yetarli emasligi, o'quv motivatsiyasining pasayishi hamda shaxsiy rivojlanishga nisbatan befarqlik kabi holatlar ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etishda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini chuqur ilmiy asosda o'rganish va ularni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda ijtimoiy yetuklikning shakllanishi ko'plab psixologik omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Ular qatoriga ichki motivatsiya, refleksiya, emotsional intellekt, empatiya, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy identifikatsiya, o'zini-o'zi boshqarish, ijtimoiy moslashuvchanlik, liderlik qobiliyati hamda shaxsning qadriyatlar tizimi kiradi. Ushbu psixologik mexanizmlarning uyg'un rivojlanishi talabning nafaqat ta'limdagi muvaffaqiyatini, balki uning kelajakdagi kasbiy faoliyat samaradorligini, fuqarolik faolligini va jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini ham belgilab beradi. Shu sababli zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda mazkur mexanizmlarning nazariy asoslarini ishlab chiqish, ularning ta'lim jarayonidagi namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash va samarali rivojlantirish usullarini takomillashtirish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.[1]

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ham oliy ta'lim tizimida talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirishga, uning intellektual, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan. Kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish hamda yoshlarni ijtimoiy faol, tashabbuskor va mas'uliyatli mutaxassislar sifatida tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu esa talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning ilmiy asoslarini yanada chuqurroq o'rganishni, mavjud psixologik mexanizmlarni tizimlashtirishni hamda ularni amaliyotga tatbiq etishning samarali usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.[2]

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini kompleks o'rganish orqali ta'lim samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqish, talabalar shaxsining ijtimoiy va kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlash hamda oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim sifatini oshirish, yoshlarning ijtimoiy moslashuvchanligini kuchaytirish, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va ta'lim menejmenti fanlarining eng dolzarb ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy yetuklik inson shaxsining biologik va yosh



xususiyatlaridan tashqari, uning psixologik rivojlanishi, ijtimoiy tajribasi, qadriyatlar tizimi, motivatsiyasi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy munosabatlarga moslashuv darajasini ifodalovchi integrativ sifat sifatida talqin etiladi. Shu sababli mazkur tushuncha ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli ilmiy nuqtai nazarlardan tadqiq etilgan bo‘lib, uning mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilishi, rivojlanish omillari va psixologik mexanizmlari bo‘yicha turli ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy yetuklik fenomenining nazariy asoslari dastlab shaxs psixologiyasi va rivojlanish psixologiyasi doirasida shakllangan. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishi, jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish jarayonlari psixologik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy yetuklik insonning tug‘ma sifati emas, balki ta’lim, tarbiya, ijtimoiy muhit va shaxsiy faoliyat natijasida bosqichma-bosqich shakllanadigan murakkab psixologik tuzilma hisoblanadi. Aynan talabalik davri ushbu sifatlarning faol rivojlanish bosqichi sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shaxs rivojlanishining psixosozial nazariyasini ishlab chiqqan Erik Erikson inson hayotini sakkiz bosqichga ajratib, yoshlik davrida identiklikni shakllantirish va ijtimoiy rollarni anglash jarayonlarini asosiy rivojlanish vazifasi sifatida baholaydi. Uning fikricha, talabalik davrida shaxsning o‘zini anglash darajasi, hayotiy maqsadlari, ijtimoiy mas’uliyati va kasbiy yo‘nalganligi shakllanadi. Agar ushbu davrda shaxs o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olsa, jamiyat bilan uyg‘un munosabatlarni yo‘lga qo‘ysa hamda mustaqil qaror qabul qilishni o‘rgansa, unda ijtimoiy yetuklikning barqaror asoslari yuzaga keladi. Erikson nazariyasining muhim jihati shundaki, unda ijtimoiy yetuklik shaxsning psixologik barqarorligi va ijtimoiy identikligi bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilinadi.

Ijtimoiy rivojlanishning madaniy-tarixiy konsepsiyasini yaratgan Lev S. Vygotskiy shaxs taraqqiyotida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini asoslab bergan. Olimning fikricha, har qanday psixik funksiyalar dastlab ijtimoiy faoliyatda shakllanadi, keyinchalik esa shaxsning ichki psixologik tizimiga aylanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, talabaning ijtimoiy yetukligi ham samarali muloqot, hamkorlik, jamoaviy faoliyat va ta’lim jarayonidagi faol ishtirok orqali rivojlanadi. Demak, ijtimoiy muhitning mazmuni va sifati talabalar shaxsining yetuklik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.[5]

